

2015 YIL 1-YARIM YILLIK ISHLARI NATIJASI

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini bajargan holda, "Olmaliq KMK" AJ tomonidan 2015 yilning 1-yarim yil tovar mahsulotlar chiqarish ta'minlandi:

- amaldagi narxlarda – 1234,6 mlrd. so'm yoki 102,1%;
- qiyosiy narxlarda – 1193,7 mrd. so'm yoki 101,6%.

Tovar mahsulot chiqarish o'sish sur'ati 2014 yilning tegishli davriga nisbatan qiyosiy narxlarda 106,8% tashkil etdi.

Mis ma'dani qazib olish belgilangan topshiriqqa nisbatan 101,7%, mis mahsuloti ishlab chiqarish esa 108,7%, shu jumladan o'z xom ashyosi hisobidan 100,0% tashkil etdi, rux metali 100,4%, shu jumladan o'z xom ashyosi hisobidan 100,5%, affinajlangan oltin 100,2% va affinajlangan kumush 100,3% tashkil etdi. Mis xom ashyosini qayta ishlash topshiriqqa nisbatan 102,6%, o'sish sur'ati 103,0% tashkil etdi.

Geologiya-qidiruv ishlari dasturiga binoan 2015 yilning 1-yarim yillida asosiy jismoniy hajmlar bajarilishi quyidagilarni tashkil etdi: yer osti lahmlarini o'tish - rejaga nisbatan 105,5% (o'sish sur'ati 162,8%), qoniqli quduqlarni burg'ulash 100,2% (o'sish sur'ati 122,2%) zovur kovlab boorish – 100,2%, 11,1 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

2015 yilning 1-yarim yillida eksportga mahsulot chiqarish 100,3% tashkil etdi. "Uzb RTSB" OAJ birja savdolari orqali mis mahsuloti sotish 101,8%, rux metalli - 100,3% bajarildi.

Ichki bozorni to'ldirish maqsadida kombinat qiymati 5,3 mlrd. so'm bo'lgan (KKS hisobga olmagan holda) xalq iste'moli mollari ishlab chiqardi yoki topshiriqqa nisbatan 101,6%, o'sish sur'ati 101,6% tashkil etdi.

"Olmaliq KMK" AJ O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 17.11.2014 yildagi 2264-PQ-sonli qaroriga binoan 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Kapital quyilmalarning yillik hajmi 464,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2015 yilning 1-yarim yillida o'zlashtirish 43,7 mlrd. so'm yoki istiqbolga nisbatan 100,5 % tashkil etdi.

Mablag'larni o'zlashtirish quyidagi tartibda amalga oshirildi:

No	Nomlanishi	Reja (mln. so'm)	Amalda (mln. so'm)	% bajarildi
1	Mis ertish zavodida Yangi ertish uchog'ini qurish	255,6	260,5	101,9
2	Amaldagi "Kizil olma" koni negizida "Samarchuk" yer osti uchastkasini qurish	5763,0	5764,0	100,0
3	"Qalmoqqir" koni balansorti ma'danlarini ishlashga jalb etish	255,6	304,4	119,1
4	Mis boyitish fabrikasi maydalash va yanchish bo'linmasini rekonstruksiya qilish (qayta ta'mirlash)	26834,3	26851,1	100,1
5	Jizzax viloyatida sement zavodini kegaytirish	127,8	146,6	114,7

6	MTMZ quyish va mexanika-yig'uv sexi rekonstruksiya qilish			
7	Eskirgan jihozlar o'rniga yangi jihoz, uskunalar xarid qilish	10222,6	10343,4	101,2
	JAMI	43458,8	43669,9	100,5

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2015 yildagi "2015-2019 yillarda Tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyilashtirish dasturi to'g'risidagi" 2298-PQ-sonli qaroriga binoan "Olmaliq KMK" AJ umumiy qiymati 67,0 mlrd. so'm bo'lgan 27 loyiha amalga oshirmoqda, 2015 yilning 1-yarim yillida qiymati 32,1 mlrd. so'mlik mahalliyilashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi yoki istiqbolga nisbatan 138% tashkil etdi.

2015 yilning 1-yarim yillida qiymati 58,2 mlrd so'm yoki sitikbolga nisbatan 101,0 % butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar xarid qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3.07.2014 yildagi 2200-PQ-sonli qaroriga muvofiq "Olmaliq KMK" AJ davlat mulkini xususiylashtirish dasturga kiritilmagan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.01.2015 yildagi "Sanoatda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq kombinat tomonidan 2015 yilda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yuzasidan takshikiliy-texnik chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi, ushbu chora - tadbirlar majmuida mahsulot tannarxini 139 668 mln. so'm yoki 7,2 % ga pasaytirish ko'zda tutilgan.

Ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini bajarishdan kutilayogan natija 82993 mln. so'm yoki 5,6% topshiriqqa nisbatan 9,2%, shu jumladan ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish - 70527 mln. so'm. yoki 4,5% topshiriqqa nisbatan 7,8% tashkil etadi.

Kombinat tomonidan boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash va debitorlki va kreditorlik qarzdorliklarni kamaytirish monitorigini amalga oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

01.07.2015 y holatiga kutilayotgan debitorlik qarzdorlik muddati o'tgan qardorlik xosil bo'lmagan holda 106,9 mlrd. so'm, kreditorlki qarzdorlik esa -149,4 mlrd so'm, muddati o'tgan kreditorlik qarzdorlik mavjud emas.

Kombinat Byudjet oldida va ish xaqi bo'yicha qarzdorlikka ega emas. "Olmaliq KMK" AJ da 2015 yil uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqigan va tasdiqlangan, ularni bajarish xisobiga yoqilg'i-energiya resurslarini iqtisod qilishning kutilayotgan ko'rsatkichlari 2015 yilning 1-yarim yilligida quyidagilarni tashkil etdi:

- eng yuqori soatlarda yuklamalarni kamaytirish - 91 MVt;
- elektrenergiyasi - 55,2 mln. kVt/s;
- yoqig'i - 12,3 mln. m³;
- issiqlik energiyasi - 6,67 ming. Gkal.YOER iqtisod qilish - umumiy qiymati 12,5 mlrd. so'm

Dasturga binoan 2015 yilda 251 yangi ish joylarini yaratish ko'zda tutilgan, shundan, sohani rivojlantirish 215 ish o'rni va investisiya dasturi bo'yicha 36 ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

2015 yilning 1-yarim yilligida sohani rivojlantirish bo'yicha 150 yangi ish o'rni yaratildi yoki istiqbolga nisbatan 116,3 % tashkil etdi.

Ishchi-xizmatchilarni texnik o'qitish dasturiga muvofiq 2122 kishi malaka oshirish bo'yicha o'qitildi, 1071 muxandis-texnik xodimlar, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda - 192 kishi qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini o'tadi.

To'lov-shartnoma asosida 95 kishi o'qimoqda. Shartnoma to'lovi uchun harajatlar 541,0 mln. so'm tashkil etdi.

"Olmaliq KMK" AJ o'ziga birlashtirilgan oltita kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik qilish, bitiruvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish yuzasidan kooperasion aloqalarni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini bajardi. Chora-tadbirlarga binoan kombinat tarkibiy bo'linmalari tomonidan o'quv ustaxonalari va laboratoriyalarini jihozlash bo'yicha homiylik yordami ko'rsatilmoqda.

2015 yilning 1-yarim yilligida kombinat tarkibiy bo'linmalarida birlashtirilgan kasb-hunar kollejlarning 1746 nafar II-kurs o'quvchilari va 1502 nafar bitiruvchilari ishlab chiqarish amaliyotini o'tadi.

Ushbu davrda 87 kishi ishga joylashtirildi, shundan 60 nafar o'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari va 27 nafar Oliy o'quv bilim yurtlari bitiruvchilaridir.

"Olmaliq KMK" AJ da ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni modernizatsiyalash va zamonaviy va jaxon miqyosida sinalgan yangi uskunalarga almashtirish bo'yicha loyihalar jadvali ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Ushbu loyihalar jadvalida umumiy qiymati 6,7 mln. doll tashkil etuvchi 27 ta uskunalarni yangilash ko'zda tutilgan. 2015 yilning 1-yarim yilligida qiymati 971,0 ming. doll. tashkil etuvchi 10 ta uskuna almashtirildi.

"Olmaliq KMK" AJ da energiyaning alternativ manbaalaridan foydalanishni kengaytirish chora-tadbirlari bajarilmoqda. "Angren quvur zavodi" UK va Avtomobil transporti boshqarmasi traktor parkida geliy qurilmalarni joriy etish tarmoq jadvali tasdiqlangan. Uskunalarni xarid qilish uchun shartnomalar tuzilmoqda.

Kombinatda "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar bajarilmoqda. Chora-tadbirlarda UVU qatnashchilari va ishlamayotgan pensionerlarga moddiy yordam ko'rsatish, ikkinchi jaxon urushi va mexnat fronti qatnashchilariga oziq-ovqat mahsulotlari majmui ajratish, rehabilitasiya uchun yordamchi texnik vositalar xarid qilish, sanatoriy va profilaktoriylarda ularni sog'lomlashtirishni tashkil etish va boshqalar tadbirlar uchun 4,3 mlrd. so'm sarflanishi ko'zda tutilgan. 2015 yilning 1-yarim yilligida belgilangan chora-tadbirlarni bajarish uchun sarf-harajatlar miqdori 1,9 mld. so'mni tashkil etdi. Kombinatsion ishchi-xizmatchilarining ehtiyojni qondirish va shahar bozorini go'sht-sut va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'ldirish maqsadida 2015 yilning 1-yarim yilligida:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari (pomidor va bodring) - 73,5 t.

Go'sht mahsuloti - 22,8 t.

Sutli mahsulotlar - 987,7 t.

Mevalar - 15 tonna yetkazib berildi.

O'tgan davr mobaynida hujjatlar hisoboti va ularni o'rnatilgan muddatlarda ijro etilishini

nazorat qilishni tashkil etish, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari hukumat qarorlari ijrosining borishi o'rganish tizimini joriy etish bo'yicha muayyan ishlar olib borildi, kombinat ish rejasiga binoan taxliliy ma'lumotnomalar rasmiylashtirilgan xoda bayonnomalar tuziladi/

Ichki qarorlar ijrosini tanqidiy taxlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish yuzasidan muayyan ishlar olib borilmoqda.

Kombinatda mexnatkashlarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 2015 yilning 1-yarim yilligida 95 ta yozma arizalar va 11 ta og'zaki arizalar kelib tushgan. 20 ta ariza bo'yicha chora ko'rildi, 83 ta ariza bo'yicha tushuntirildi, 2 ta ariza ko'rib chiqilmoqda, 1 ta ariza rad qilindi. Arizalar mazmuni - moddiy yordam ko'rsatish, ishga joylashish va davolanish.